

**Peshku tumani Axborot-kutubxona markazi**

**Axborot-bibliografiya xizmati**

**Shonli turkning o‘tyurak avlodisiz,  
JADIDLAR!**



**Bibliografik sharh**

**Peshku-2025**

## Shonli turkning o'tyurak avlodisiz, JADIDLAR!

Ma'rifatparvar ajdodlarimiz merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiydir. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan uyg'un va hamohangdir.

Sh. Mirziyoyev

Millatning millatligini belgilovchi bosh mezon uning tili va adabiyoti ekani ayon. Zero til millatning mavjudlik sharti bo'lsa, badiiy adabiyotda uning boshqa hech bir xalqqa o'xshamaydigan fitrati, siyrati, ruhiyati aks etadi. O'zbekning eng katta baxti-buyuk mutafakkir shoir-u adiblari adadining ko'pligidir. Xalqimizning toleyi baland ekani-benazir ijodkorlari hech bir xalqdan qarz olishga ehtiyoji yo'qligidir. Biz mamlakatimiz tarixining yangi davriga qadam qo'ydik. **Adabiyotga, ma'naviyatga bo'lgan e'tibor** bugungi kunda har qachongidan yuksak darajaga ko'tarilayotganiga guvohmiz.

“Vatanning mustabidlar zulmidan ozod bo'lishi millati farzandlari sharafiga to'lganlar qatorida ko'rishni orzulagan xalqimizning qalbi uyg'oq **farzandlari-jadid adabiyoti namoyondalari**” haqida ko'p va xo'p gapirish mumkin. Xalq ma'naviyatini boyitish yo'lida olib borilayotgan kurashlar milliy matbuot, adabiyot va teatrning odamlar tafakkurini oshirishdagi ahamiyati haqida so'z borarkan, **Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Usmon Nosir, Is'hoqxon Ibrat siymolari** ko'z oldimizda gavdalanadi. Ular o'z asarlarida ko'targan muammolar hamon bizning qarshimizda bo'y ko'rsatib turibdi.

Ushbu uslubiy tavsiyada **jadidchilik va jadid adabiyoti namoyondalarining** hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishishmaganini eslatib, milliy istiqbolimizni, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'imizday asrashga doimo da'vat etib turadi.

**Unda jadidlar kimlar?** Millatimiz fidoyilarining gumanistik qarashlarga tayanishimiz ularning merosidan ma'naviy kuch-quvvat olishimiz haqida keng ma'lumotlar berilgan. Ushbu uslubiy tavsiyadan keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

### JADIDCHILIK NIMA?

**Jadidchilik (arab jadid - yangi)** ma'nosini anglatadi. **Jadidchilik** harakati namoyondalari ko'pincha o'zlarini **taraqqiyparvarlar** keyinchalik **jadidlar** deb atashgan. O'sha davrning ilg'or **taraqqiyparvar** kuchlari, xalqning deyarli barcha tabaqalari-hunarmand dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyoliylar **dastlab** chorizmga qarshi kurashni **xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish** – siyosiy **ma'rifiy** jahadan boshlashga qaror qildilar.

**Jadidlar** orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassisleri, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lida fidoyilarcha kurashdilar. **Jadidlarning** Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilar edi: **Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, keyinchalik demokratik Respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish kabi g'oya va maqsadlardan iborat edi.**

Turkistonda **jadidchilik** harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida **Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Xo'jayev,**

**Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Sadridin Ayniy, Obidjon Mahmudov, Cho‘lpon, Is‘haqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda, Polvonniyoz hoji Yusupov turardi. Jadidlar o‘z gazeta va jurnallari, yangi usul maktablari, turli kutubxona va qiroatxonalar, havaskor teatr truppalari tevaragida to‘planishar edi. Ular o‘z asarlari bilan tarixan yangi milliy adabiyot yaratdilar.**

Prezidentimizning quyidagi so‘zlari esa har bir ijodkor, millat ma‘rifati uchun o‘zini mas‘ul sezgan yurtdoshlarimizni sergak torttiradi: **“Tarixdan ma‘lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari-uyg‘oq qalbli ziyoliylar, shoir va adiblar, san‘at namoyondalari, ma‘naviyat va ma‘rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”.**


**“Tilda, fikrda, ishda birlik”** degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan **jadid bobolarimiz** xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li – **bilim va ma‘rifatda dunyoviy taraqqiyotni egallashda deb bildilar.**

Bugungi kunda **Yangi O‘zbekistonda** inson qadri ulug‘lanadigan adolatli, erkin va odob jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarning barchasi **jadid bobolarimizning** ezgu g‘oya va dasturlariga har jihatdan uyg‘un va hamohangdir. Shu bois xalqimiz ozodligi va Vatanimiz ravnaqi yo‘lida aziz jonlarini fido qilgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyatini va me‘rosini yangicha tafakkur asosida o‘rganish hamda targ‘ib etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Yurtimizda ushbu yo‘nalishda muhim qaror va farmonlar qabul qilinib, har yili **31-avgust – “Qatag‘on qurbonlarini yod etish”** kuni sifatida keng nishonlanmoqda. **“Shahidlar xotirasi”** yodgorlik majmuasi va jamoat fondi, **“Qatag‘on qurbonlari”** xotirasi davlat muzeyi, uning bo‘linmalari barcha viloyatlarda faoliyat olib bormoqda. Bundan tashqari, bu murakkab davr tarixiga oid ilmiy va badiiy asarlar, **“Tarixning noma‘lum sahifalari”, “Qatag‘on qurbonlari”** nomli ko‘p jildlik xotira kitoblari nashr etilmoqda.

Atoqli ma‘rifatparvarlarimiz davlatimizning yuksak mukofatlari bilan taqdirlanmoqda. Ularning aziz nomlari bilan ataladigan **yodgorlik majmualari, muzeylar, bog‘ va xiyobonlar** barpo etilmoqda.

Keyingi yillarda O‘zbekiston oliy sudi tomonidan **1030 dan ziyod mustabid tuzum qatag‘oniga uchragan Vatandoshlarimiz nomi oqlandi.** Shu o‘rinda aytish joizki, yurtimizda **“Jadid”** nomli gazeta chiqa boshladi. Buyuk ma‘rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg‘a surilgan g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma‘rifiy qarashlar, turli millat va elatlar o‘rtasida bag‘rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar barchasi hozirgi zamonda, **avvalo yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasi**dir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, **milliy istiqlolimizni jonajon Vatanimizni ko‘z qorachig‘iday asrashga doimo da‘vat etib turadi.**

Peshku tuman Axborot-kutubxona markazi Axborot-bibliografiya xizmati tomonidan **“Shonli turkning o‘tyurak avlodisiz, JADIDLAR!”** deb nomlangan bibliografik sharh tuzildi. Ushbu bibliografik sharh keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallab tuzilgan. **Quyida “Jadid adabiyoti namoyondalari”** asarlarining bibliografik sharhi bilan tanishasiz.



### **Avloniy, Abdulla.**

She'rlar, pedagogik asarlar, drama, maqolalar va sayohatnoma [Matn]. Abdulla Avloniy / Nashrga tayyorlovchilar Begali Qosimov, Olim Oltinbek. – Toshkent: “Zabarjad Media”, 2022. – 432 b.

Har bir inson oz erki bilan inson bo'lganidek, har bir davlat ham o'zining **mustaqilligi, ozodligi** bilan to'laqonli davlatdir. 1900-yillardan boshlab (endigina o'ttizdan oshgan) **Abdulla Avloniy** milliy dard bilan og'ridi. Turkiy dunyoda chiqib turgan gazeta va jurnallar bilan tanishdi “**Jadidchi**” degan nom chiqardi. “**Jadid maktabi**” ochib, dars bera boshladi. Xalq **ma'manaviyatini** boyitish yo'lida olib borilgan kurashlar, bu borada fidoyilik ko'rsatgan alaloqibat qatag'onga uchragan millat fidoyisi **A. Avloniy** hayot yo'li va ijodiy faoliyati haqida ushbu

kitobda keng va qamrovli yoritilgan.



### **Cho'lpon, Abdulhamid.**

She'rlar, hikoyalar, she'riy va nasriy tarjimalar [Matn]. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon /Nashrga tayyorlovchilar: Iskandar Madg'oziyev, Sohibaxon Islomova. – Toshkent: “Zabarjad Media”, 2022. –336 b.

Yangi o'zbek adabiyotining asoschilaridan biri, ulug' shoir va adib **Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning** betakror ijodi g'oyat rang-barangdir. Uning nisbatan qisqa davom etgan sermahsul hayoti ijodiy yutuqlarga boy bo'ldi: yuksak iste'dodi tufayli yaralgan yuzlab she'rlar, qator nasriy asarlar, dramalar maqola va tarjimalari

bilan o'zbek adabiyoti xazinasini boyitdi. Taqdim etilayotgan **A. Cho'lponning** ushbu kitobiga adib hayotlik davrida chop ettirgan to'plamlari, davriy nashrlarda e'lon qilingan she'rlari, hikoya va tarjimalaridan saralab olingandir.

### **Ibrat, Is'hoqxon.**



G'azallar, ilmiy va ma'rifiy maqolalar, tarixiy asarlar [Matn].

Is'hoqxon Ibrat/ Nashrga tayyorlovchilar: Ulug'bek Dalimov, Nurboy Jabborov. – Toshkent: “Zabarjad Media”, 2022. – 208 b.

O'zbekning eng katta baxti-buyuk mutafakkir shoir-yu adiblari adadining ko'pligidir, **Ibrat Is'hoqxon to'ra** milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining benazir siymolaridandir. Biz **Ibrat Is'hoqxon** merosining qaysi jihatlarini chuqur o'rganishimiz, o'sib kelayotgan yosh avlod qalbi-yu shuuriga qay bir fikrlarini teran singdirishimiz kerak? Bu benazir ijodkor millatga manfaati yetishi mumkin bo'lgan barcha ilmlarni puxta egalladi. Ushbu kitob ham ulug' m'arifat parvar shoir va adib ijodini keng targ'ib etuvga


intilish natijasi sifatida taqdim etilmoqda.

**Ey dahr eli, bilinglar, turfa zamon bo'libdur,  
Beandisha xaloyiq, fe'li yomon bo'libdur,  
Olim bila faqirda zuhd-yu amal bo'linmay,  
Yoinki amri ma'ruf go'yo nihon bo'libdur.**

“Jadid adabiyoti namoyondalari” ruknida tayyorlangan kitoblarimizni o‘qir ekanmiz, kitobxon o‘zini shu vatanning ongli fuqarosi, vatani va millati taqdiri uchun mas’ul inson sifatida namoyon qilishga o‘zida jur’at topadi.

#### **Qodiriy, Abdulla.**

She’riy, hikoyalar, ocherk, drama, hajviy va kichik asarlar [Matn]. A. Qodiriy / Nashrga tayyorlovchi: Xondamir Qodiriy. So‘zboshi muallifi Usmon Azim. – Toshkent: “Zabarjad Media”, 2022. – 400 b.



Har bir millat hayotida uning taqdiri – bu dunyoda yashashga haqli yoki haqsiz ekanligi hal bo‘ladigan burilish nuqtasi bo‘ladi. Vatanning taqdirini o‘zi belgilamog‘i yo‘lida qat’iyat va fidokorlik ko‘rsata oladigan, bugunga ertaning ezgu urug‘ini socha oladigan kuchlarning – vatanparvarlarning sa’y – harakati bu yo‘lda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bir qarashda bu kuchlar kam ko‘rinsa ham fidoyiliklari, sobitliklari va jonbozliklari tufayli Vatanning or-nomusi uchun kurashadilar va bu yo‘lda aslo hayiqmay boradilar.

Abdulla Qodiriy xalqning or-nomusi uchun kurashgan qadrtalab o‘zbeklarning eng jasoratli va iste’dodli vakilidir.

#### **Usmonov, Olim.**


**Jadidlar. G‘ulom Zafariy [MATN] :** risola./O. Usmonov – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.- 156 b.



O‘zbekiston jadid adabiyoti tarixini G‘ulom Zafariy ijodisiz tasavvur etish qiyin. Zero o‘zbek adabiyotida musiqali drama janri va bolalar dramaturgiyasining vujudga kelishi bevosita uning nomi bilan bog‘liqdir. Adib o‘z asarlari bilan o‘tgan asrning 20-30 yillari ma’naviy ijtimoiy hayotida sezilarli iz qoldiradi. G‘ulom Zafariy shoir, dramaturg, publitsist rejissiyor, bastakor va musiqashunos ham bo‘lgan. Ushbu risolada G‘ulom Zafariy ijodining ayni shu jihatlariga e’tibor berilgan.

#### **Abdurashidov, Zaynobidin.**

**Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy [Matn] :** risola./ Z. Abdurashidov. –Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.- 156 b.



Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining yirik namoyondasi, o‘lka jadidlarining yetakchisidir. U pedagogika jurnalistika, matbaachilik, noshirchilik siyosati, tijorat va boshqa ishlar bilan shug‘ullangan. Bundan tashqari Behbudiy yangi o‘zbek adabiyotining shakillanishi va rivojiga ham o‘z hissasini qo‘shdi. Ushbu risolada ham ma’rifatparvar bobomizning hayot yo‘li, faoliyati, jadidchilik harakatining yirik vakillari bilan munosabatlari, ijodidan ayrim asarlari yoritilgan.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

### Jadid adabiyoti namoyondalari

1. **Avloniy, Abdulla.** She'rlar, pedagogik asarlar, drama, maqolalar va sayohatnoma [Matn]. Abdulla Avloniy / Nashrga tayyorlovchilar Begali Qosimov, Olim Oltinbek. – Toshkent: “Zabarjad Media”, 2022. – 432 b.
2. **Cho'ipon, Abdulhamid.** She'rlar, hikoyalar, she'riy va nasriy tarjimalar [Matn]. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'ipon / Nashrga tayyorlovchilar: Iskandar Madg'oziyev, Sohibaxon Islomova. – Toshkent: “Zabarjad Media”, 2022. – 336 b.
3. **Ibrat, Is'haqxon.** G'azallar, ilmiy va ma'rifiy maqolalar, tarixiy asarlar [Matn]. Is'hoqxon Ibrat/ Nashrga tayyorlovchilar: Ulug'bek Dalimov, Nurboy Jabborov. – Toshkent: “Zabarjad Media”, 2022. – 208 b.
4. **Qodiriy, Abdulla.** She'riy, hikoyalar, ocherk, drama hajviya va kichik asarlar [Matn]. Abdulla Qodiriy / Nashrga tayyorlovchi Xondamir Qodiriy. So'z boshi muallifi Usmon Azim. – Toshkent: “Zabarjad Media”, 2022. – 400 b.
5. **Usmonov, Olim. Jadidlar.** G'ulom Zafariy [Matn] : risola. /O. Usmonov. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.
6. **Abdurashidov, Zaynobidin. Jadidlar.** Mahmudxo'ja Behbudiy [Matn] : risola. / Z. Abdurashidov. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.
7. **Internet manbalaridan foydalanildi.**

**Axborot-bibliografiya xizmati**